AQSH TASHQI SIYOSATIDA ETNIK LOBBILARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING YAQIN SHARQ MINTAQAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

Xudoyqulova Marjona Turayevna
JIDU "Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar" magistranti
xmarjonaturayevna@gmail.com

Qudratova Ozodaxon Komil qizi
JIDU "Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar" magistranti
ozodaxonkeldiyorovakomilovna@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21283207

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada AQSh tashqi siyosatida etnik lobbilarning o'rni, ularning shakllanish bosqichlari, faoliyat mexanizmlari hamda tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda pluralizm, manfaatlar guruhi, diaspora siyosati va transnational advocacy networks nazariyalari asosida etnik lobbilar faoliyatining nazariy asoslari yoritilgan. Yahudiy, arman, kubalik, arab va eron-amerikalik diasporalarning qiyosiy tahlili orqali ularning siyosiy samaradorligi hamda ta'sir darajasi baholangan. Etnik lobbilar evolyutsiyasining tarixiy bosqichlari, AQSh qonunchiligidagi huquqiy asoslari va zamonaviy transformatsiyalari ilmiy manbalar hamda statistik ma'lumotlar asosida tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari etnik lobbilar AQSh tashqi siyosatini shakllantirishda ichki omil sifatida faol ishtirok etishini, ularning ta'siri xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy barqarorlik va geosiyosiy jarayonlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

KALIT SO'ZLAR: etnik lobbilar, diaspora, AQSh tashqi siyosati, manfaatlar guruhlari, lobbichilik, transmilliy tarmoqlar, pluralizm nazariyasi, siyosiy safarbarlik, Kongress, Yaqin Sharq, siyosiy ta'sir.

KIRISH: Globallashuv, transmilliy migratsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda xalqaro siyosatda nodavlat ishtirokchilarning faollashuvi sharoitida etnik lobbilar zamonaviy xalqaro munosabatlarning subyektlaridan biriga aylandi. AQSh siyosiy tizimida diaspora tashkilotlari tashqi siyosatni shakllantirish va amalga oshirish jarayonida sezilarli ta'sir ko'rsatib, Kongress, ijroiya hokimiyati, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan faol hamkorlik olib bormoqda. Natijada etnik lobbilar nafaqat alohida davlatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarga, balki mintaqaviy xavfsizlik, xalqaro mojarolar va global geosiyosiy muvozanatga ham bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur maqolaning dolzarbligi AQSh tashqi siyosatida etnik lobbilar roliga oid ilmiy qarashlarni tizimli ravishda umumlashtirish, ularning nazariy asoslari, faoliyat mexanizmlari hamda amaliy ta'sirini kompleks tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi. Yaqin Sharqdagi geosiyosiy jarayonlar, AQSh ichki siyosatidagi o'zgarishlar va raqamli siyosiy kommunikatsiyalarning rivojlanishi etnik lobbilar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

METODLAR: Mazkur tadqiqotda sifat tahliliga asoslangan ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tarixiy-qiyosiy, tizimli va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. AQSh tashqi siyosatida etnik lobbilar faoliyatiga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, tahliliy markazlar hisobotlari hamda xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari o'rganildi. Yahudiy, arman, kubalik, arab va eron-

amerikalik diasporalarning faoliyati qiyosiy tahlil qilinib, ularning siyosiy ta'sir mexanizmlari va samaradorligi baholandi. Olingan natijalar nazariy yondashuvlar bilan uyg'un holda tahlil qilinib, ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR: Etnik lobbi muayyan etnik jamoa yoki diaspora manfaatlarini ifodalovchi hamda o'z ajdodlari vatani bilan bog'liq masalalarni AQSh tashqi siyosatida ilgari suruvchi manfaatlar guruhi sifatida tavsiflanadi. Oddiy manfaatlar guruhlaridan farqli ravishda, etnik lobbilar transmilliy xususiyatga ega. Ular bir tomondan AQSh ichki siyosiy institutlariga ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan o'z tarixiy vatani hududida AQSh qadriyatlari bo'lgan demokratiya, inson huquqlari va bozor iqtisodiyoti tamoyillarini targ'ib etishga xizmat qiladi. Yossi Shain ushbu ikki tomonlama jarayonni "Marketing the American Creed Abroad" konsepsiyasi orqali izohlab, diasporalarning tashqi siyosatdagi vositachilik rolini asoslab bergan **[1]**.

Etnik lobbilar faoliyatining asosiy mexanizmlari bir necha yo'nalishlarni qamrab oladi. Ular Kongress a'zolari, senatorlar va ijroiya hokimiyati vakillari bilan muntazam aloqalar o'rnatish, qonun loyihalari bo'yicha ekspert xulosalarini taqdim etish hamda siyosiy delegatsiyalar va tashriflarni tashkil etish orqali to'g'ridan-to'g'ri lobbi olib boradi **[2]**. AQSh kongressmenlarining Isroilga tashriflarini tashkil etish bunday faoliyatning yorqin namunasidir. PAC va Super PAClar orqali saylov kampaniyalarini moliyalashtirish, ayrim nomzodlarni qo'llab-quvvatlash yoki ularga qarshi siyosiy kampaniyalar olib borish asosiy vosita hisoblanadi. Citizens United (2010) qaroridan so'ng moliyaviy ta'sir imkoniyatlari sezilarli ravishda kengaydi **[3]**. Ommaviy axborot vositalari, tahliliy aql markazlari, ilmiy tadqiqotlar hamda universitet kampuslaridagi faoliyat orqali jamoatchilik fikrini shakllantirish amalga oshiriladi. Muayyan masalalarni kun tartibiga olib chiqish va ularni ma'lum nuqtai nazardan talqin etish, ya'ni agenda setting va framing mexanizmlari qo'llaniladi. Masalan, Isroilni "Yaqin Sharqdagi yagona demokratik davlat" sifatida taqdim etish yoki arman genotsidini insoniyatga qarshi jinoyat sifatida xalqaro maydonda e'tirof ettirish ana shunday strategiyalar jumlasidan.

Mazkur mexanizmlar natijasida etnik lobbilar nafaqat siyosatchilar, balki keng jamoatchilik qarashlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Yahudiy diasporasi Isroilga ko'rsatiladigan yordamni AQSh milliy xavfsizligi manfaatlari bilan bog'lash orqali demokratlar va respublikachilar o'rtasidagi ikki partiyaviy qo'llab-quvvatlashni shakllantira olgan **[4]**. Tarixan irland diasporasi Buyuk Britaniya bilan munosabatlarda, kubalik diaspora esa 1960-yillardan buyon Kuba embargosi siyosatini shakllantirishda faol ishtirok etgan **[5]**. Sovuq urushdan keyingi davrda esa ichki siyosiy omillarning kuchayishi etnik lobbilarning tashqi siyosatdagi mavqeini yanada oshirdi.

Diaspora faolligining shakllanishida demokratik tajriba va mojaro tajribasi muhim omillar hisoblanadi. Demokratik muhit siyosiy tadbirkorlarning (political entrepreneurs) vujudga kelishiga zamin yaratadi, mojaro tajribasi esa etnik birdamlikni mustahkamlab, siyosiy safarbarlikni kuchaytiradi. Aynan shu omillar ayrim etnik guruhlarning kuchli lobbi tashkilotlarini yaratishi, boshqalarning esa nisbatan sust siyosiy faollik ko'rsatishini tushuntiradi **[6]**.

Etnik lobbilar faoliyatini izohlashda bir nechta nazariy yondashuvlardan foydalaniladi. Ulardan biri pluralizm nazariyasi bo'lib, Robert Dal jamiyatdagi turli manfaatlar guruhlari o'zaro raqobat orqali siyosiy qarorlarni shakllantirishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv etnik lobbilarni demokratik tizimning tabiiy elementi sifatida ko'radi. Biroq elitizm tarafdorlari resurslar teng taqsimlanmaganini, boy va yaxshi tashkil etilgan guruhlar siyosiy jarayonda ustunlik qilishini qayd etadi **[7]**. Iqtisodiy va tashkiliy imkoniyatlari yuqori bo'lgan yahudiy diasporasi ko'plab boshqa diasporalarga nisbatan ancha samarali faoliyat yuritadi.

Ikkinchi nazariya manfaatlar guruhi nazariyasi bo'lib, unga ko'ra guruhlarning siyosiy ta'siri ularning resurslari, moliyaviy salohiyati, tashkilotlanish darajasi, siyosiy institutlarga

kirish imkoniyati va muammoning dolzarbligiga bog‘liq. Devid M. Pol va Reychel Anderson Pol (2009) ushbu nazariyani etnik guruhlarga tatbiq etib, beshta asosiy omilni ajratgan: aholi soni va geografik joylashuvi, moddiy va tashkiliy resurslar, masalaning dolzarbligi (issue saliency), assimilyatsiya darajasi hamda maqsadlarning mavjud siyosatni saqlash yoki uni o‘zgartirishga qaratilganligi **[8]**.

Diaspora siyosati yondashuvi etnik guruhlarning transmilliy aloqalarini o‘rganishga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, diasporalar nafaqat AQShdagi siyosiy manfaatlarni himoya qiladi, balki tarixiy vatani bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirib, AQSh tashqi siyosati va o‘z davlatidagi siyosiy jarayonlar o‘rtasida vositachilik vazifasini bajaradi **[9]**. Arman diasporasi AQShda genotsidning rasman tan olinishi uchun olib borgan uzoq yillik kurash orqali Armanistonning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilgan.

Margaret Kek va Ketrin Sikkink tomonidan ishlab chiqilgan transnational advocacy networks nazariyasi esa etnik lobbilarning xalqaro tarmoqlar orqali normativ qadriyatlar, axborot va strategik harakatlarni tarqatish imkoniyatlarini yoritadi. Inson huquqlari, xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liq masalalar aynan shu transmilliy tarmoqlar vositasida xalqaro kun tartibiga olib chiqiladi **[10]**. Pluralizm va manfaatlar guruhi nazariyasi ichki siyosiy jarayonlarni tushuntirsa, diaspora siyosati hamda transnational advocacy networks etnik lobbilarning transmilliy tabiatini izohlaydi **[11]**. Domestic sources of foreign policy konsepsiyasi esa mazkur nazariyalarni yagona tizimga birlashtirib, etnik lobbilarni AQSh tashqi siyosatining ichki omili sifatida talqin qiladi **[12]**.

AQSh siyosiy tizimida etnik lobbilar faoliyati mustahkam huquqiy asosga ega. Konstitutsiyaning Birinchi tuzatishi so‘z erkinligi, yig‘ilish erkinligi hamda hukumatga murojaat qilish huquqini kafolatlab, lobbichilikni demokratik jarayonning qonuniy qismi sifatida himoya qiladi. Lobbying Disclosure Act (1995) lobbichilik tashkilotlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning moliyaviy faoliyati yuzasidan hisobot berishni talab etsa **[13]**, Foreign Agents Registration Act (1938) xorijiy hukumat yoki tashkilotlar nomidan ish yurituvchi agentlar faoliyatini nazorat qiladi **[14]**. AIPAC yoki Armenian Assembly of America kabi ko‘plab etnik tashkilotlar AQSh fuqarolari tomonidan moliyalashtirilgani sababli FARA emas, balki LDA doirasida faoliyat yuritadi. Citizens United qaroridan keyin PAC va Super PAClar orqali saylovlarga cheksiz mablag‘ yo‘naltirish imkoniyati yaratilgani etnik lobbilarning siyosiy ta’sirini yanada kuchaytirdi **[15]**.

Yaqin Sharq bilan bog‘liq etnik guruhlarning qiyosiy tahlili ularning siyosiy ta’siri turlicha ekanini ko‘rsatadi. AQShdagi yahudiy diasporasi 2023–2025 yillar ma’lumotlariga ko‘ra taxminan 6,3 million kishini tashkil etadi va eng kuchli hamda eng yaxshi tashkil etilgan etnik lobbi hisoblanadi. Yuqori darajadagi ta’lim, iqtisodiy salohiyat, AIPAC va ADL kabi kuchli institutlar, ikki partiyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda Isroil xavfsizligining yuqori siyosiy dolzarbligi uning asosiy ustunliklari sanaladi **[16]**. Devid M. Pol tasnifiga ko‘ra, ushbu diaspora barcha besh mezon bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega.

Arman diasporasi son jihatdan 500–800 ming kishi atrofida bo‘lsa-da, genotsidni tan oldirish, Armanistonga yordam ko‘rsatish va tarixiy adolatni tiklash masalalarida yuqori siyosiy faollik namoyon etadi **[17]**. Arab-amerikaliklar esa taxminan 3,7 million kishini tashkil etsa-da, ichki xilma-xillik, tashkiliy zaiflik va 2001-yil 11-sentabrdan keyingi stereotiplar sababli siyosiy ta’siri nisbatan past hisoblanadi **[18]**. Eron-amerikalik diaspora taxminan 750 ming kishidan iborat bo‘lib, asosan inson huquqlari va Eron rejimiga qarshi siyosatni qo‘llab-quvvatlaydi, biroq ichki bo‘linishlar va resurslarning cheklanganligi uning imkoniyatlarini qisqartiradi **[19]**. Boshqa etnik guruhlar bilan taqqoslaganda, kubalik diaspora son jihatdan taxminan 2 million bo‘lsa-da, ayniqsa Florida shtatidagi saylovlar orqali AQShning Kuba siyosatiga juda katta ta’sir ko‘rsatgan **[20]**. Irland diasporasi esa tarixan Buyuk Britaniya bilan munosabatlar va Shimoliy Irlandiya tinchlik jarayonida rol o‘ynagan **[21]**.

Devid M. Pol va Reychel Anderson Polning 2009-yildagi “Ethnic Lobbies and US Foreign Policy” tadqiqotida yahudiy va kubalik lobbilar AQSh tashqi siyosatiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi etnik guruhlar sifatida baholangan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, etnik guruhlar umumiy lobbi xarajatlari bo‘yicha yetakchi bo‘lmasalar-da, tor yo‘nalishdagi masalalarda yuqori samaradorlikka erishadi **[22]**.

Jon J. Mirshaymer va Stefen M. Voltning “The Israel Lobby and U.S. Foreign Policy” (2007) asari esa eng bahsli tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Mualliflar Isroil lobbisi AQSh tashqi siyosatini Isroil manfaatlari tomon haddan tashqari og‘dirganini, Iroq urushi va harbiy yordam siyosatida sezilarli ta’sir ko‘rsatganini qayd etadi **[23]**. Tanqidchilar esa strategik manfaatlar, razvedka hamkorligi va mintaqaviy xavfsizlik omillari yetarlicha hisobga olinmaganini, lobbi tushunchasi haddan tashqari keng talqin qilinganini hamda ayrim tarixiy dalillar soddalashtirilganini qayd etadilar.

Statistik ma’lumotlar ham etnik lobbilarning samaradorligini tasdiqlaydi. AIPAC 2024-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri lobbi xarajatlari uchun 3,3 million AQSh dollari sarflab, mamlakat bo‘yicha 191-o‘rinni egallagan. Pro-Isroil guruhlari umumiy hisobda qariyb 5 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri lobbi mablag‘larini yo‘naltirgan bo‘lsa, Super PAClar orqali saylov kampaniyalariga 100 million dollar sarflangan. AQShdagi umumiy lobbichilik tizimida biznes uyushmalari, Chamber of Commerce kabi tashkilotlar yetakchilik qilayotgan bo‘lsa-da, etnik lobbilar aniq tashqi siyosiy masalalarda yuqori samaradorlik namoyon etmoqda. Super PAClardan foydalanishning keskin ortib borayotgani kelgusida etnik lobbilar siyosiy ta’sirining yanada kuchayishini ko‘rsatadi **[24]**.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida immigrant diasporalarining siyosiy faolligi asosan grass-roots, ya’ni ommaviy harakatlar shaklida namoyon bo‘ldi. Bu davrda etnik guruhlar ko‘proq ommaviy murojaatlar, namoyishlar va mahalliy siyosatchilarga bosim o‘tkazish orqali o‘z manfaatlarini ilgari surishga harakat qildilar. Irland-amerikaliklar Buyuk Britaniyadan Irlandiya mustaqilligini talab qilib, AQSh prezidentlariga, jumladan Vudro Vilson ma’muriyati davrida murojaatlar uyushtirdilar hamda “Irish vote”ni siyosiy vositaga aylantirdilar. Nemis-amerikaliklar esa Birinchi jahon urushida AQShning ishtirok etishiga qarshi chiqib, mamlakatning neytrallik siyosatini qo‘llab-quvvatladilar. Sharqiy Yevropadan kelgan immigrantlar va yahudiy diasporasining dastlabki tashkilotlari ham shakllana boshladi. Biroq ushbu davrda etnik guruhlar tashkiliy jihatdan zaif, resurslari cheklangan bo‘lib, ularning siyosiy ta’siri asosan mahalliy yoki qisqa muddatli xarakter kasb etgan. 1900–1920-yillarda AQSh aholisining katta qismini immigrantlar va ularning avlodlari tashkil etgan bo‘lsa-da, ularning tashqi siyosatga tizimli ta’siri hali shakllanmagan edi **[25]**.

Ikkinchi jahon urushi va 1950–1970-yillar etnik lobbilar, ayniqsa yahudiy diasporasi uchun tub burilish davri bo‘ldi. Holokost fojiasi hamda 1948-yilda Isroil davlatining tashkil topishi yahudiy diasporasining siyosiy safarbarligini keskin kuchaytirdi. 1954-yilda Isaiya L. Kenen tomonidan American Zionist Committee for Public Affairs (AZCPA) tashkil etildi va 1959-yildan boshlab u American Israel Public Affairs Committee (AIPAC) nomi bilan faoliyat yurita boshladi. Tashkilotning asosiy maqsadi AQShning Isroilga harbiy va iqtisodiy yordamini ta’minlash, xalqaro maydondagi tanqidlarga qarshi siyosiy himoya mexanizmlarini shakllantirishdan iborat edi **[26]**. Ushbu davrning asosiy siyosiy voqealaridan biri 1975-yilda 75 nafar senator tomonidan Prezident Gerald Fordga yuborilgan maktub bo‘lib, unda Isroilga yordamni davom ettirish va AQSh siyosatini qayta ko‘rib chiqishga qarshi pozitsiya ifodalangan edi. Mazkur voqea yahudiy lobbisining Kongressdagi ta’sir salohiyatini yaqqol namoyish etdi. Shu davrdan boshlab grass-roots faollik professional lobbichilik tizimiga aylana boshladi: doimiy ofislar ochildi, professional mutaxassislar jalb qilindi hamda Kongress bilan tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. O‘sha davrda AQShdagi yahudiy amerikaliklar soni 5–6 million atrofida bo‘lib, ularning yuqori

ta’lim darajasi, iqtisodiy salohiyati va ijtimoiy mavqei ushbu professional tuzilmalarni qo‘llab-quvvatlash imkonini yaratdi **[27]**.

1970–1980-yillarni qamrab olgan Sovuq urush davri etnik lobbilar faoliyatining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu davrda diaspora tashkilotlari AQShning global geosiyosiy strategiyasiga moslashdi. Yahudiy lobbisi Isroilni kommunizmga qarshi kurashdagi strategik ittifoqchi sifatida taqdim etib, AQShning har yili taxminan 3 milliard dollardan ortiq harbiy va iqtisodiy yordamini barqarorlashtirishga erishdi **[28]**. 1959-yildagi Kuba inqilobidan keyin kubalik diaspora AQShning embargo va rejimni o‘zgartirish siyosatini shakllantirishda xizmat qildi. Arman diasporasi esa Sovet Ittifoqiga qarshi siyosiy muhitdan foydalanib, 1915-yilgi genotsid masalasini xalqaro maydonga olib chiqdi. Aynan shu davrda “hypermobilization” deb ataluvchi jarayonning dastlabki belgilari yuzaga chiqdi **[29]**. Geosiyosiy raqobatning kuchayishi va yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lishi diaspora tashkilotlari faolligini sezilarli darajada oshirdi. Bu davrda Super PAClar va raqamli siyosiy vositalar hali mavjud emas edi.

Sovuq urush tugashi va 1990-yillar etnik lobbilar tarixida yana bir transformatsiya bosqichi bo‘ldi. 1991-yilda Armaniston mustaqillikka erishgach, Armenian National Committee of America (ANCA) hamda Armenian Assembly of America faoliyati keskin faollashdi. Aslida ANCA 1918-yilda American Committee for the Independence of Armenia nomi bilan tashkil topgan bo‘lib, 1941-yilda hozirgi nomini olgan. Ushbu tashkilotlar AQShning Armanistonga iqtisodiy va gumanitar yordamlarini oshirish, Tog‘li Qorabog‘ masalasida Kongress qo‘llab-quvvatlovini ta’minlash hamda 1915-yilgi arman genotsidining rasman tan olinishiga erishish uchun faol kurash olib bordilar. Natijada Armaniston bir muddat aholi jon boshiga hisoblaganda AQShdan eng ko‘p yordam oluvchi davlatlardan biriga aylandi **[30]**. Devid M. Pol va Reychel Anderson Polning 2009-yildagi tadqiqotida arman lobbisi o‘rtacha darajada ta’sir ko‘rsatadigan etnik guruh sifatida baholangan. Mazkur bosqichda “hypermobilization” effekti yaqqol namoyon bo‘ldi, chunki mustaqillik yangi siyosiy imkoniyatlarni yaratdi va diaspora tashkilotlari o‘rtasidagi raqobat ularning umumiy faolligini yanada kuchaytirdi.

2001-yildan keyingi davr hamda ayniqsa 2010–2020-yillar etnik lobbilar tarixidagi chuqur transformatsiya bosqichi hisoblanadi. 2001-yil 11-sentabr terrorchilik hujumlaridan so‘ng arab va musulmon diasporalari kuchli siyosiy bosim ostida qoldi, yahudiy lobbisi esa terrorizmga qarshi kurash konsepsiyasi doirasida o‘z siyosiy pozitsiyalarini yanada mustahkamladi **[31]**. 2010-yildagi Citizens United qaroridan keyin Super PAClar paydo bo‘lib, saylov jarayonlariga moliyaviy ta’sir keskin oshdi. AIPAC bilan bog‘liq United Democracy Project (UDP) Super PAC 2022–2024-yillardagi saylov sikllarida o‘nlab million dollar mablag‘ sarflab, Jamal Bouman, Kori Bush kabi tanqidchi demokrat nomzodlarga qarshi faol kampaniyalar olib bordi **[32]**. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn petitsiyalar va raqamli fundraising vositalari advocacy faoliyatini ommalashtirib, uni ancha arzon va tezkor shaklga aylantirdi. 1985-yilda tashkil etilgan Washington Institute for Near East Policy (WINEP) siyosiy ekspertiza, media va analitik qo‘llab-quvvatlash orqali lobbichilik faoliyatining ilmiy asoslarini mustahkamladi **[33]**. Ayni davrda ichki bo‘linishlar ham kuchaydi. 2007–2008-yillarda Jeremi Ben-Ami tomonidan tashkil etilgan J Street “pro-Isroil, pro-tinchlik va pro-demokratiya” tamoyillarini ilgari suruvchi progressiv muqobil sifatida shakllandi va ikki davlatli yechimni qo‘llab-quvvatladi. Yosh avlod hamda Demokratik partiyaning progressiv qanoti, Squad vakillari ta’sirining ortishi AIPACning an’anaviy siyosatini tanqid ostiga oldi **[34]**.

Tarixiy rivojlanish davomida etnik lobbilar faoliyatida bir necha transformatsion yo‘nalishlar kuzatildi. Birinchidan, grass-roots faollik professional va institutsional lobbichilik tizimiga aylandi. Dastlab ommaviy namoyishlar va murojaatlar ustun bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda professional lobbiistlar, yuridik maslahatchilar, tahliliy markazlar

hamda Kongress bilan muntazam aloqalar asosiy vositaga aylandi. Ikkinchidan, moliyaviy ta’sir sezilarli darajada kuchaydi. Uchinchidan, media, aql markazlari va raqamli platformalar bilan integratsiya chuqurlashdi. To‘rtinchidan esa, ichki siyosiy bo‘linishlar institutsional shakl oldi. J Street va IfNotNow kabi tashkilotlar yosh avlod orasida keng qo‘llab-quvvatlanib, “hypermobilization” jarayonini, ya’ni raqobat natijasida barcha tomonlarning siyosiy faolligi va xarajatlari ortishini kuchaytirdi.

Mazkur transformatsiyani yuzaga keltirgan omillar ham ko‘p tomonlamali xarakterga ega. Sovuq urush yakunlangach, anti-kommunistik konsensus o‘z ahamiyatini yo‘qota boshladi va etnik lobbilar strategik hamkorlik, demokratiya hamda xavfsizlik kabi yangi argumentlarga murojaat qilishga majbur bo‘ldi. Ko‘p qutbli xalqaro tizim sharoitida Xitoy va Rossiyaning Suriya, Eron va energetika yo‘laklaridagi faolligi AQSh tashqi siyosatini murakkablashtirib, diaspora tashkilotlari uchun yangi imkoniyatlar hamda yangi tahdidlarni yuzaga keltirdi. Texnologik taraqqiyot, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar va onlayn fundraising vositalari mobilizatsiyani arzonlashtirdi, tezlashtirdi va kengaytirdi. AQSh ichki siyosatidagi partiyaviy qutblashuv Isroil va Yaqin Sharq masalalarini partiyaviy bahs markaziga aylantirdi. Respublikachilar an’anaviy ravishda Isroilni kuchliroq qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa, Demokratik partiya ichidagi progressiv qanot tanqidiy pozitsiyani kuchaytirdi **[35]**. Diaspora resurslarining ortishi, yahudiy amerikaliklarning yuqori ta’lim va iqtisodiy salohiyati hamda arman diasporasining kuchli tashkilotlanishi professional lobbichilik infratuzilmasini uzoq muddat davomida moliyalashtirish imkonini berdi.

AIPAC 1954-yilda kichik tashkilot sifatida faoliyat boshlagan bo‘lsa, bugungi kunda millionlab tarafdorlarga ega bo‘lgan hamda Super PAClar orqali AQSh saylovlariga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan yirik siyosiy institutga aylangan. Arman diasporasida esa uzoq tarixga ega bo‘lgan ANCA hamda ko‘proq institutsional yondashuvni qo‘llovchi Armenian Assembly of America o‘rtasidagi raqobat “hypermobilization” jarayonini kuchaytirdi. 1975-yildagi senatorlar maktubi, 1990-yillarda Armanistonga ko‘rsatilgan yirik yordam dasturlari va J Streetning shakllanishi etnik lobbilar evolyutsiyasining tarixiy bosqichlari sifatida baholanadi **[36]**. Statistik tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri lobbichilik xarajatlari nisbatan past bo‘lib qolayotganiga qaramay, saylov kampaniyalariga yo‘naltirilayotgan mablag‘lar keskin ortmoqda. Bu holat bir tomondan fuqarolik jamiyati faolligini kuchaytirayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan siyosiy tengsizlik va moliyaviy resurslarning siyosiy qarorlarga ta’siri haqidagi bahslarni yanada dolzarb qilmoqda.

Yahudiy lobbisining muvaffaqiyatlaridan biri AQShning Isroilga ko‘rsatadigan doimiy harbiy yordam siyosatini shakllantirish va uni uzoq muddat davomida saqlab qolish hisoblanadi. 2019–2028-yillarga mo‘ljallangan Memorandum of Understanding doirasida AQSh har yili Isroilga taxminan 3,8 milliard AQSh dollari miqdorida yordam ajratmoqda. Ushbu mablag‘ning 3,3 milliard dollari Foreign Military Financing dasturi orqali, yana 500 million dollari esa raketa mudofaasi tizimlarini rivojlantirish uchun yo‘naltiriladi. 2023-yil 7-oktabr voqealaridan keyin AQSh tomonidan qo‘shimcha harbiy yordam paketlari ham tasdiqlandi. Natijada Isroil 21,7 milliard AQSh dollari miqdorida qo‘shimcha harbiy yordam oldi. 2024-yil aprel oyida qabul qilingan supplemental paketning o‘zi 8,7 milliard dollarni tashkil etdi, keyingi yillik ajratmalar esa ushbu yordam hajmini yanada oshirdi **[37]**.

Yahudiy lobbisining yana bir siyosiy yutug‘i 2018-yilda Donald Tramp ma’muriyati davrida AQSh elchixonasining Tel-Avivdan Quddusga ko‘chirilishi bo‘ldi. Ushbu qaror AIPAC va boshqa pro-Isroil tashkilotlarining uzoq yillar davomida ilgari surib kelgan asosiy talablaridan biri edi. Elchixonaning Quddusda ochilishi AQShning Isroil siyosatidagi tarixiy burilishlardan biri sifatida baholanadi hamda lobbichilik faoliyatining yuqori samaradorligini namoyish etadi **[38]**.

Yahudiy lobbisi Eron yadro dasturi bo‘yicha tuzilgan Joint Comprehensive Plan of Action (JCPOA) kelishuviga qarshi faol siyosiy kampaniya olib bordi. Mazkur kelishuv

Isroil xavfsizligiga tahdid sifatida talqin qilindi va Kongress hamda ijroiya hokimiyati darajasida unga qarshi kuchli bosim o‘tkazildi. Natijada 2018-yilda AQSh JCPOAdan rasman chiqdi hamda Eronga nisbatan “maximum pressure” siyosati va keng qamrovli iqtisodiy sanksiyalarni qayta tikladi **[39]**.

Yahudiy lobbisining ta’siri Isroilning “Qualitative Military Edge” (QME), ya’ni sifat jihatidan harbiy ustunligini saqlash siyosatida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. AQSh qonunchiligiga muvofiq, Isroil mintaqadagi boshqa davlatlarga nisbatan ilg‘or harbiy texnologiyalar va qurol-yarog‘larni ustuvor ravishda olish huquqiga ega. Ushbu yondashuv Isroilning harbiy ustunligini uzoq muddat davomida kafolatlashga qaratilgan bo‘lib, pro-Isroil lobbisining strategik yutuqlaridan biri hisoblanadi. G‘azo sektori va boshqa Yaqin Sharq mojarolari yuzasidan AQShning diplomatik pozitsiyasida ham yahudiy lobbisining ta’siri kuzatiladi. AQSh tomonidan xalqaro tashkilotlarda veto huquqidan foydalanish, Isroilni diplomatik jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda harbiy yordamni davom ettirish ushbu ta’sirning amaliy ifodasi hisoblanadi **[40]**.

Arman lobbisi ham AQSh tashqi siyosatida sezilarli ta’sirga ega bo‘lgan etnik guruhlardan biri. Aholi soni jihatidan yahudiy diasporasidan ancha kichik bo‘lishiga qaramay, Armenian National Committee of America (ANCA) va Armenian Assembly of America kabi tashkilotlar yuqori darajadagi tashkiliy salohiyat, uzoq tarixiy tajriba hamda ichki raqobat natijasida shakllangan “hypermobilization” jarayoni orqali samarali siyosiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. ANCA 1918-yildan boshlangan tarixiy faoliyatini grass-roots va professional lobbying elementlari bilan uyg‘unlashtirgan holda davom ettirmoqda. Arman lobbisining muvaffaqiyatlaridan biri 2021-yil 24-aprelda Prezident Jo Bayden tomonidan 1915-yil voqealariga nisbatan “genotsid” atamasining ilk bor rasmiy bayonotda qo‘llanishi bo‘ldi. Ushbu qaror arman diasporasining o‘nlab yillar davomida olib borgan siyosiy va diplomatik kurashining muhim natijasi sifatida baholanadi hamda AQSh tashqi siyosatida tarixiy ahamiyatga ega voqea hisoblanadi. **[41]** Arman lobbisi AQSh tomonidan Armanistonga ajratiladigan iqtisodiy va harbiy yordam paketlarini shakllantirishda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Ushbu yordam dasturlari Armanistonning iqtisodiy rivojlanishi va xavfsizlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Arman lobbisining yana bir yutug‘i 1992-yilda qabul qilingan Freedom Support Actning 907-moddasi bilan bog‘liq. Mazkur norma arman diasporasining faol sa’y-harakatlari natijasida qonunchilikka kiritilgan bo‘lib, Ozarbayjon Armanistonga nisbatan blokada va tajovuzkor harakatlarni to‘xtatmaguncha AQShning ayrim turdagi yordamlarini cheklashni nazarda tutadi. Garchi ayrim davrlarda prezident tomonidan ushbu modda bo‘yicha waiverlar qo‘llanilgan bo‘lsa-da, arman lobbisi uni saqlab qolish va amalda qo‘llash yuzasidan Kongressdagi siyosiy faoliyatini davom ettirib kelmoqda **[42]**.

Arman diasporasi Turkiya bilan AQSh munosabatlariga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Genotsid rezolyutsiyalarini qabul qilish, tarixiy xotira masalalarini xalqaro kun tartibiga olib chiqish hamda Turkiyaga nisbatan ayrim siyosiy choralarni qo‘llab-quvvatlash orqali ushbu yo‘nalishda faol ishlamoqda. Mazkur misollar arman lobbisining Kongressdagi qonun ijodkorligi jarayonlari, byudjet ajratmalari va siyosiy koalitsiyalarni shakllantirish mexanizmlaridan samarali foydalanayotganini tasdiqlaydi **[43]**.

Boshqa etnik guruhlarning AQSh tashqi siyosatiga ta’siri nisbatan cheklangan. Arab-amerikalik tashkilotlar, jumladan American-Arab Anti-Discrimination Committee (ADC) va boshqa guruhlar tarixan tashkiliy salohiyati hamda moliyaviy resurslari jihatidan zaifroq bo‘lgan. Ularning siyosiy ta’siri ko‘proq neft kompaniyalari manfaatlari yoki Davlat departamentidagi Yaqin Sharq bo‘yicha mutaxassislar — “Arabists” orqali bilvosita amalga oshirilgan **[44]**.

Eron-amerikalik guruhlar, xususan National Iranian American Council (NIAC) va shunga o‘xshash tashkilotlar diplomatik muloqot, yadroviy muzokaralar va sanksiyalarni

yumshatish tarafdori sifatida faoliyat yuritadi. Biroq ular yahudiy lobbisi darajasidagi tashkiliy imkoniyatlar, moliyaviy resurslar va keng siyosiy koalitsiyalarga ega emasligi sababli ularning siyosiy ta'siri ancha cheklangan. So'nggi yillarda AQSh Kongressida pro-Falastin qarashlarini ilgari surayotgan ayrim progressiv siyosatchilar va guruhlarning faolligi ortib bormoqda. Biroq ular hanuz Kongressdagi ozchilikni tashkil etadi hamda kuchli moliyaviy, media va siyosiy qarshi kampaniyalarga duch kelmoqda. Shu sababli ularning AQShning Yaqin Sharq siyosatiga ta'siri hozircha cheklangan bo'lib qolmoqda.

Umumiy baholash shuni ko'rsatadiki, etnik lobbilar shakllantirgan yoki kuchaytirgan AQSh tashqi siyosati qisqa muddatli xavfsizlik manfaatlariga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda mintaqaviy ishonchsizlik va eskalatsiya xavfini ham kuchaytirishi mumkin. Ijobiy jihatdan qaralganda, AQSh va Isroil o'rtasidagi strategik sheriklik Eron hamda uning mintaqadagi proksi kuchlari bo'lgan Hizbulloh, Husiylar va "Hamas"ning ayrim guruhlariga nisbatan "tiyib turish" (deterrence) omili vazifasini bajaradi. Mazkur hamkorlik razvedka ma'lumotlari almashinuvi, zamonaviy harbiy texnologiyalarni birgalikda rivojlantirish hamda iqtisodiy va texnologik hamkorlik orqali mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Iron Dome, Arrow va David's Sling raketaga qarshi mudofaa tizimlari Isroilning mudofaa salohiyatini sezilarli darajada kuchaytirgan. Ibrohim kelishuvlari doirasida Isroilning Bahrayn, Birlashgan Arab Amirliklari, Marokash va Sudan bilan munosabatlarni normallashtirishi ayrim arab davlatlari bilan siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirib, mintaqadagi keskinlikni ma'lum darajada yumshatishga xizmat qildi.

Razvedka va harbiy texnologiyalar sohasidagi hamkorlik ham mintaqaviy xavfsizlikning omillaridan biri hisoblanadi. AQSh va Isroil razvedka xizmatlari Eronning yadroviy dasturi, terrorchilik tashkilotlari va mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soluvchi boshqa omillar yuzasidan muntazam axborot almashadi. Isroilning kibermudofaa, suv resurslarini boshqarish va qishloq xo'jaligi innovatsiyalari sohasidagi texnologik ustunligi AQSh bilan hamkorlik orqali mintaqadagi iqtisodiy va texnologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

2020-yilda imzolangan Ibrohim kelishuvlari mintaqaviy integratsiya jarayonlarining yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur kelishuvlar doirasida Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn, Marokash va Sudan Isroil bilan diplomatik munosabatlarni normallashtirdi. Natijada o'zaro savdo hajmi, investitsiyalar va iqtisodiy hamkorlik sezilarli darajada kengaydi. Shu orqali ayrim arab davlatlari iqtisodiy manfaatlarni siyosiy qarama-qarshiliklardan ustun qo'yishga harakat qildi hamda Eronning mintaqadagi ta'sirini muvozanatlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi **[45]**.

Biroq etnik lobbilar ta'sirining salbiy yoki murakkab oqibatlari ham mavjud. Eng avvalo, Isroil–Falastin mojarosida AQSh tomonidan yetarli siyosiy bosimning qo'llanilmasligi tinchlik muzokaralarining uzoq muddat davomida natijasiz qolishiga sabab bo'lmoqda. 2023-yil 7-oktabrdan keyin boshlangan G'azo urushi buning yaqqol misolidir. BMTning Gumanitar masalalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (UN OCHA) va G'azo Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 10-iyun holatiga ko'ra, 72996 falastinlik halok bo'lgan, 173246 dan ortiq kishi yaralangan. Isroil tomonidan esa 2 000 dan ortiq inson halok bo'lgan **[46]**. Ushbu ko'rsatkichlar mojaroning naqadar og'ir gumanitar oqibatlarga olib kelganini hamda mintaqadagi beqarorlikni yanada kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Bunday vaziyat radikal guruhlarning yangi tarafdorlarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirib, ekstremizm xavfini oshirmoqda.

AQShning Isroilga nisbatan izchil qo'llab-quvvatlovchi siyosati mamlakatning xalqaro maydondagi "halol vositachi" sifatidagi obro'siga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar AQShni Isroil manfaatlariga yaqin siyosat yuritayotgan davlat sifatida qabul qilmoqda. Natijada Vashingtonning vositachilik salohiyati pasayib,

mintaqadagi diplomatik tashabbuslarning samaradorligi kamaymoqda. Eron va boshqa davlatlarga nisbatan olib borilayotgan sanksiyalar siyosati ham murakkab iqtisodiy va gumanitar oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. So‘nggi kunlarda Eron iqtisodiyoti yalpi ichki mahsulotining 6,1 foizga qisqarishi, inflyatsiyaning 68,9 foizgacha yetishi, milliy valyutaning keskin qadrsizlanishi hamda o‘rta sinf ulushining sezilarli kamayishi kuzatildi **[47]**. Mazkur iqtisodiy inqiroz aholi turmush darajasining pasayishiga, ijtimoiy noroziliklarning kuchayishiga va radikal kayfiyatlarning ortishiga zamin yaratmoqda.

Mintaqada qurollanish poygasining kuchayishi ham etnik lobbilar ta’siri bilan bog‘liq murakkab jarayonlardan biri. Eron yadroviy dasturining “o‘tish nuqtasi”ga yaqinlashayotgani haqidagi xabarlar, mintaqa davlatlari tomonidan harbiy xarajatlarning muntazam oshirilishi hamda zamonaviy qurol-yarog‘ tizimlariga bo‘lgan talabning ortishi kuchlar muvozanatini o‘zgartirmoqda. Rossiya, Xitoy va Turkiyaning Yaqin Sharqdagi geosiyosiy ta’siri ham sezilarli ravishda kuchaymoqda. Xitoy Eron va Fors ko‘rfazi davlatlari bilan iqtisodiy sheriklikni kengaytirayotgan bo‘lsa, Rossiya Liviyadagi harbiy-siyosiy ishtirokini saqlab qolmoqda. Turkiya esa Armaniston va Ozarbayjon bilan bog‘liq mintaqaviy siyosat orqali NATOning janubiy qanotidagi strategik muvozanatga bilvosita ta’sir ko‘rsatmoqda hamda ayrim hollarda AQSh siyosatidan mustaqil tashqi siyosiy yo‘nalishni amalga oshirmoqda.

So‘nggi yillardagi geosiyosiy tendensiyalar AQShning mintaqadagi nisbiy ta’siri kamayib borayotganini ham ko‘rsatmoqda. Ko‘p qutbli xalqaro tizim sharoitida Fors ko‘rfazi davlatlari xavfsizlik va iqtisodiy aloqalarini diversifikatsiya qilishga intilmoqda. Birlashgan Arab Amirliklari va Saudiya Arabistoni Xitoy hamda Hindiston bilan strategik sheriklikni izchil rivojlantirmoqda. G‘azo urushi, Qizil dengizdagi Husiylar hujumlari hamda Suriya va Iroqdagi davom etayotgan beqarorlik global savdo tizimiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 2023-yil noyabridan 2024-yil oktabrigacha Husiylar tomonidan 190 dan ortiq hujum amalga oshirilgani, ayrim hisobotlarda esa bu ko‘rsatkich 178 taga yetgani qayd etiladi. Natijada to‘rtta kema cho‘kdi, dengizchilar halok bo‘ldi va Suvaysh kanali orqali harakatlanuvchi kemalar soni keskin kamaydi. Ko‘plab yuk tashuvchilar Afrikani aylanib o‘tuvchi yo‘nalishlardan foydalanishga majbur bo‘ldi, bu esa tashish muddatini qo‘shimcha 10–14 kunga uzaytirdi **[49]**.

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, etnik lobbilar kelgusida ham AQSh tashqi siyosatini shakllantiruvchi ichki omillardan biri bo‘lib qoladi. Xalqaro tizimning tobora ko‘p qutbli tus olishi, geosiyosiy raqobatning kuchayishi hamda mintaqaviy mojarolarning davom etishi diaspora tashkilotlarining siyosiy faolligini yanada oshirishi mumkin. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn fundraising platformalarining rivojlanishi lobbichilik faoliyatini tezkor, arzon va keng qamrovli shaklga olib chiqadi. Bu esa siyosiy safarbarlikning yangi usullarini yuzaga keltirib, etnik guruhlarning Kongress va ijroiya hokimiyatiga ta’sirini yanada kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas. AQSh ichki siyosatidagi partiyaviy qutblashuv, yosh avlodning tashqi siyosatga nisbatan o‘zgarayotgan qarashlari hamda inson huquqlari masalalarining dolzarblashuvi etnik lobbilar strategiyasini qayta ko‘rib chiqishga majbur etadi. Kelajakda an’anaviy lobbi institutlari bilan bir qatorda yangi avlod fuqarolik harakatlari, transmilliy tarmoqlar va raqamli platformalar o‘rtasidagi raqobat kuchayishi kutiladi. Natijada tashqi siyosatni shakllantirish jarayoni yanada murakkablashib, manfaatlar muvozanatini ta’minlash davlat institutlari oldidagi asosiy vazifalardan biriga aylanadi. Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda etnik lobbilar faoliyatining sun’iy intellekt, raqamli diplomatiya, dezinformatsiya, kibermakon va global kommunikatsiya vositalari bilan uyg‘unlashuvi, ularning AQShning Xitoy, Rossiya, Hind-Tinch okeani va Markaziy Osiyo yo‘nalishlaridagi tashqi siyosatiga ta’sirini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlar etnik lobbilar evolyutsiyasini,

ularning xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy barqarorlik va global boshqaruv tizimiga ko‘rsatadigan uzoq muddatli ta’sirini yanada to‘liq baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shain, Y. (1999). Marketing the American creed abroad: Diasporas in the U.S. and their homelands. Cambridge University Press.
2. Stojiljković, A. (2007). Ethnic lobbying in the US (Master’s thesis, Central European University, Department of Political Science). CEU Electronic Theses and Dissertations.
3. Hurl, R., et al. (2018). Interest groups. In Understanding America. eCampusOntario Pressbooks.
4. Mearsheimer, John J., J. J., & Walt, Stephen M., S. M. (2006, March). The Israel Lobby and U.S. foreign policy (KSG Faculty Research Working Paper No. RWP06-011). Harvard Kennedy School Working Paper.
5. White, Timothy J., T. J., & Pausa, Emily M., E. M. (2019). When did the Irish-American diaspora make a difference? Influencing U.S. diplomacy towards Northern Ireland. Studi Irlandesi. A Journal of Irish Studies, 9, 329–346.
6. Prasad, S. K., & Savatic, F. (2023). Diasporic Foreign Policy Interest Groups in the United States: Democracy, Conflict, and Political Entrepreneurship. Perspectives on Politics, 21(3), 831–848.
7. McCormick, J. M. (Ed.). (2017). The domestic sources of American foreign policy: Insights and evidence (7th ed.). Rowman & Littlefield.
8. Paul, D. M., & Paul, R. A. (2009). Ethnic lobbies and US foreign policy. Lynne Rienner Publishers.
9. Kafle, H. R. (2010). Diaspora studies: Roots and critical dimensions. Bodhi: An Interdisciplinary Journal, 4(1), 136–149.
10. Keck, M. E., & Sikkink, K. (1999). Transnational advocacy networks in international and regional politics. International Social Science Journal, 51(159), 89–101.
11. McDowell, C. A., Aronica, V., Collantes-Celador, G., & De Silva, N. (2018, June). Thematic Report One: Understanding transnational diaspora politics: A conceptual discussion. Centre for Research and Evidence on Security Threats (CREST).
12. Hendla, I. (2010). Connections between foreign and domestic politics in theories of international relations. International Studies Perspectives, 6, 67–89.
13. United States Congress. (1995, December 19). Lobbying Disclosure Act of 1995 (Pub. L. No. 104–65, 109 Stat. 691). U.S. Government Publishing Office.
14. Straus, J. R. (2024, January 5). Foreign Agents Registration Act (FARA): An overview (CRS In Focus No. IF10499). Congressional Research Service, Library of Congress.
15. Freeman, B., & Cleveland-Stout, N. (2024, July). Foreign lobbying in the U.S. (Quincy Brief No. 59). Quincy Institute for Responsible Statecraft.
16. Frumkin, R. M. (2025). Jewish-Arab American relations. EBSCO Research Starters.
17. Aydogan, F. (2018). The influence of the Armenian diaspora on the American foreign policy (Master’s thesis, University of South Florida). USF Tampa Graduate Theses and Dissertations.
18. Hoiland, S., & Lumen Learning. (n.d.). Arab Americans. In Introduction to Sociology (Module 8: Race and Ethnicity). Lumen Learning.
19. Fahmy, D., & Passel, J. S. (2026, March 5). 7 facts about Iranians in the U.S. Pew Research Center.
20. Cuban Research Institute. (2011, July). The Cuban diaspora in the 21st century (pp. 38–65). Florida International University.

21. Hall, M. (Comp.). (2020, January). The Irish diaspora in Britain & America: Benign or malign forces? In Reflections on 1969: Lived experiences & living history (Discussion 6; Island Pamphlets No. 123). Island Publications.
22. Paul, D. & Paul, R. (2009). 5 The Most Influential Ethnic Lobbies. In Ethnic Lobbies and US Foreign Policy (pp. 135-168). Boulder, USA: Lynne Rienner Publishers.
23. Bacevich, A. J. (2008). Review of The Israel Lobby and U.S. Foreign Policy, by J. J. Mearsheimer & S. M. Walt. Diplomacy & Statecraft, 19(4), 787–795.
24. AIPAC (n.d.). The truth about lobbying. https://aipac.org/truth-lobbying
25. Gevinson, A. (2019, February 6). Immigration to America in the late 19th and early 20th centuries. Brewminate: A Bold Blend of News and Ideas.
26. Rossinow, D. (2018). "The Edge of the Abyss": The Origins of the Israel Lobby, 1949–1954. Modern American History, 1(1), 23–43.
27. Gwertzman, B. (1975, May 22). 75 senators back Israel's aid bids. The New York Times. https://www.nytimes.com/1975/05/22/archives/75-senators-back-israels-aid-bids-they-sign-letter-to-ford-urging.html
28. Garfinkle, A. (1996). U.S.-Israeli relations after the Cold War. Orbis, 40(4), 557–575.
29. Adamson, F. B. (2013). Mechanisms of diaspora mobilization and the transnationalization of civil war*. In J. T. Checkel (Ed.), Transnational Dynamics of Civil War (pp. 63–88). Chapter, Cambridge: Cambridge University Press.
30. Gegham Petrosyan (2023). Historical Rethinking of Relations with the First Republic of Armenia and the United States of America: The Dilemma of Orientation and Expectations. Journal of Political Science: Bulletin of Yerevan University, 2 (2 (5)), 76-99.
31. Shoshani, A., & Slone, M. (2016). Through the Looking Glass: The Role of Ethnicity and Affiliation in Responses to Terrorism in the Media. Frontiers in psychology, 7, 1911.
32. Johnson, J. (2024, August 28). 'Very bad sign for democracy': AIPAC has spent over $100 million on 2024 elections. Common Dreams. https://www.commondreams.org/news/aipac-100-million
33. The Washington Institute for Near East Policy. (n.d.). Our mission & history. https://www.washingtoninstitute.org/about/our-mission-history
34. Klitsner, Y. (2026, July 6). Can AIPAC and J Street coexist? The shrinking middle ground in U.S.-Israel support. Jewish People Policy Institute. https://jppi.org.il/en/can-aipac-and-j-street-coexist-the-shrinking-middle-ground-in-us-israel-support/
35. Ikenberry, G. (2010). The restructuring of the international system after the Cold War. In M. P. Leffler & O. A. Westad (Eds.), The Cambridge History of the Cold War (pp. 535–556). Chapter, Cambridge: Cambridge University Press.
36. Solomon, M. S. (1993). The agenda and political techniques of the American Israel Public Affairs Committee (AIPAC) (Executive Research Project S70). The Industrial College of the Armed Forces, National Defense University.
37. Hartung, W. D. (2025, October 7). U.S. military aid and arms transfers to Israel, October 2023–September 2025 (Quincy Brief No. 86). Quincy Institute for Responsible Statecraft & Costs of War Project, Brown University.
38. Muna, M., & Turner, M. (2018, May 16). The United States' recognition of Jerusalem as the capital of Israel and the challenge to the international consensus. Middle East Report Online (MERIP).
39. Cutter, G. (2019). The pro-Israel lobby, the United States, and the Iran nuclear deal: The pro-Israel lobby's influence on U.S. foreign policy (Bachelor's honors thesis, University of Oregon, Robert D. Clark Honors College). University of Oregon Scholars' Bank.
40. Scott, P. (2021, December 13). Israel's qualitative military edge: U.S. arms transfer policy. E-International Relations.

41. OSW Team. (2021, April 26). The US President has recognised the 1915 genocide of Armenians. Centre for Eastern Studies (OSW).
42. Boyce, G. C., & Kikel, D. (2026, May 14). How Armenia and Azerbaijan are lobbying for influence in D.C. EVN Report.
43. Maharramov, I. (2021, June 1). The role of Armenian lobby in U.S. foreign policy decision making of recognizing the Armenian genocide (Policy Memo No. SORG.04.011). Social Research Center (SORG).
44. Terry, J. J. (2005). U.S. foreign policy in the Middle East: The role of lobbies and special interest groups. Pluto Press
45. Amaliya, L. R., Basyar, M. H., & Hannase, M. (2025). Abraham Accords: Normalization agreements between Arab countries and Israel. Intermestic: Journal of International Studies, 10(1), 23–46.
46. United Nations Relief and Works Agency for Palestine Refugees in the Near East. (2026, June 18). UNRWA Situation Report #226 on the humanitarian crisis in the Gaza Strip and the occupied West Bank, including East Jerusalem.
47. Bao, A., & Ellyatt, H. (2026, April 23). These charts show how Iran's economy is in freefall. CNBC.
48. Sainz, V. (2025, March 27). The Red Sea shipping crisis (2024–2025): Houthi attacks and global trade disruption. Atlas Institute for International Affairs.